“Dehqonobod kaliy zavodi”AJning
2023-yil “22”dekabrdagi 01-13/3566-sonli
xatiga ilova

**“Dehqonobod kaliy zavodi”AJning 2023 yil uchun Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi**
**HISOBOTI**

| № | Amalga oshiriladigan ishlar | Bajarilishi | Asos |
|---|---|---|---|
| **I. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi** | | | |
| 1. | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | Nizom ishlab chiqilgan va jamiyat boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-son qarori |
| 2. | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | 2023 yilga mo‘ljallangan namunaviy “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-son qarori |
| 3. | Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi. | Sohaga oid murojaatlarni qabul qilish maqsadida Call-markaz (75-612-50-11) va murojaat @Dkzmurojaat_bot telegram botlari ishlab turibdi | |
| 4. | Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot sifatli va o‘z vaqtida taqdim etilganligi va rasmiy veb-saytga joylashtirilganligi. | Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot Raqobat qo‘mitasiga belgilangan vaqtda taqdim etilmoqda va tashkilotning rasmiy veb saytiga joylashtirilmoqda. | |

<table>
<tr><th colspan="4">II. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishi xatarlarini aniqlash,<br>baholash va ularning oldini olish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilganligi</th></tr>
<tr><td>5.</td><td>Faoliyatga tegishli materiallarni o‘rganish natijasida (shu jumladan, raqobatni yoki iste’molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlar xatlovdan o‘tkazishda) aniqlangan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi.</td><td>Jamiyat faoliyatida raqobat qonunchiligini qo‘pol ravishda buzish holatlari qayd etilmagan</td><td></td></tr>
<tr><td>6.</td><td>Aniqlangan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ko‘rilgan choralar.</td><td rowspan="5">Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzilishini oldini olish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilgan<br>Jamiyat uchun xarid qilinayotgan tovar-moddiy boyliklar O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021 yil 30 iyuldagi 473-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-son Qaroriga asosan amalga oshiriladi. Shuningdek, tovar moddiy boyliklarni xarid qilish jamiyatning 2023 yil 20 iyundagi 391-sonli buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi. Ushbu buyruq asosida jamiyat xo‘jalik faoliyati doirasida zarur bo‘ladigan tovarlarning davlat xaridalarini o‘tkazish komissiyasining tarkibi va xaridlarni</td><td></td></tr>
<tr><td>7.</td><td>Faoliyat davomida oldi olingan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi.</td><td></td></tr>
<tr><td>8.</td><td>Tashkilot faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar aniqlanganligi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilganligi.</td><td></td></tr>
<tr><td>9.</td><td>Qabul qilinadigan ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.</td><td></td></tr>
<tr><td>10.</td><td>Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.</td><td></td></tr>
</table>

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | o‘tkazishni amalga oshirish tartibi ishlab chiqilgan. «O‘zkimyosanoat» AJ tashkilotlari tomonidan eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29 avgustdagi PQ-3246-sonli qaroriga muvofiq “O‘zkimyoimpeks” MCHJning vazifasi hisoblanadi. | |
| 11. | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan OAV va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar. | Faoliyat yuzasidan OAVlarda chiqishlar qilinmagan. 2024 yilda bu ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. | |
| **III. Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subektlar rahbarlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari** | | | |
| 12. | Tashkilotda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida vakolatli shaxs (bo‘linma) tayinlanganligi, uning zarur resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta’minlanganligi. | O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2023 yil 6 iyundagi №01/04-1740-son xati ijro uchun qabul qilingan va jamiyat buyrug‘i bilan vakolatli shaxs tayinlangan, zaruriy moddiy-texnik baza bilan ta’minlangan. | 2023-yil 13-iyundagi №1/1248-sonli xatga asosan 2023-yil 22-iyundagi 600-k buyruq |
| 13. | Tashkilot rahbarlari tomonidan hay’at yig‘ilishlari va boshqa yig‘ilishlarda tashkilot faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash masalasi ko‘rib chiqilganligi. | Jamiyatning ish faoliyatida chetdan sotib olinadigan barcha tovar-moddiy qiymatliklar tovar xom-ashyo birjasi orqali sotib olinishi ta’minlangan. Jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar(kaliy xlorid) faqat tovar | Tovar xom-ashyo birjasi orqali xarid qilish to‘g‘risidagi hukumat qarorlari va “O‘zkimyosanoat” AJ ko‘rsatmalari. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | xom-ashyo birjasi va "O'zkimyoimpeks" MCHJ orqali sotilishi "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan qat'iy ravishda belgilangan. | |
| **IV. Xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi** | | | |
| 14. | Hisobot yilida xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi. | O'zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2023 yil 23 noyabrdagi 4756/02-21/1-son xati ijro uchun qabul qilingan. Malaka oshirish hamda seminar va amaliy treninglar ishtirok etish rejalashtirilgan va ushbu tadbirlar uchun ketishi mumkin bo'lgan xarajatlar xarajatlar smetasiga kiritilgan. | 2023-yil 28-noyabrdagi №1/2531 sonli kirim xati |
| 15. | Tashkilot xodimlarini raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar mavjudligi. | Rejalashtirilgan seminar va amaliy treninglardan ishtirok etib orttirilgan malaka-tajribalar asosida jamiyat o'quv markazi bilan hamkorlikdao'quv dasturlar va qo'llanmalar ishlab chiqish rejalashtirilgan. | 2023-yil 28-noyabrdagi №1/2531 sonli kirim xati |

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
bo`yicha vakolatli shaxs Abduraxmanov B.